

**Б**ир бор екан, бир yo'q екан, qadim zamonda o'nta og'a-ini qarindoshlar o'tgan ekan. Ularning to'qqiztasi dangasa, bittasi abjir, hammasining kasbi aravazoslik ekan.

To'qqiz dangasa shahar bozorining o'rtasida, bir Abjir bo'lsa, shaharning bir chetida yashar ekan.

Shahar o'rtasida yashovchi dangasalar bir kunda bir aravani zo'rg'a yasashar ekan.

Shahar chetida yashovchi bir Abjir bo'lsa, bir kunda to'qqizta arava yasar ekan.

Kunlar o'taveribdi.

Bozordagi xalq: «To'qqiz dangasa yasagan arava yomon» deb, bir Abjir yasagan aravalarni «juda yaxshi» deb maqtar ekan. Bu maqtov og'izdan og'izga ko'chib, birga ikki qo'shilib, Abjir aravalarining narxini oshirib, dangasalarining aravalari narxini pasaytiribdi. Borib-borib oxiri dangasalarining aravasiga xaridor topilmay qolibdi.

To'qqiz aravazosning boshi qotibdi. Ular nima qilishni o'ylay boshlabdi.

Kunlarning birida dangasalar boshlarini quyi solib, bellarini bukib arava sozlayotganlarida, ulardan biri sheriklariga qarab:

— Topdim!.. — deb qichqirib yuboribdi. To'rt dangasa mix qoqqancha, uchtasi g'ildirakni, bittasi to'qmoqni ko'targancha qotib qolibdi.



**Б**ыло или не было, жили в одном городе девять лодырей и один Проворный.

Девять лодырей имели дома у самого базара, а Проворный жил на самой окраине города.

И лодыри, и Проворный делали арбы. Ленивы были лодыри и за целый день с трудом изготавливали всего одну арбу. А Проворный один в течение дня делал девять арб.

Народ на базаре ругал арбы, сделанные лентяями, и хвалил арбы Проворного.


Стали девять лодырей думать, как им поправить свои дела. Думали они день и ночь, и вот один из них воскликнул:

— Нашёл!

Четыре лодыря, что один гвоздь забивали, три, которые топор поднимали, да один срубанком в руке — так и застыли на месте.

А первый лодырь продолжал:

— Сейчас пойду к Проворному, расхвалю нашу работу, скажу, что мы каждый день делаем восемьдесят одну арбу, и у нас столько денег, что не знаем, куда их девать. И потому решили его взять в компанию.



— Hozir borib Abjirni ishga solaman, ishimizni maqtayman, — debdi haligi. — «Har birimiz kuniga to‘qqiz aravadan to‘qqizovimizga sakson bir arava yasayapmiz, deyman, pulimiz ko‘pligidan nima qilishimizni bilmay qoldik, seni sherik qilishni lozim topdik, yur biznikiga, bu yerda ter to‘kib, kulfat tortib yurma, ukamizsan, bizning uyga borib oyog‘ingni uzatib yot», deyman. U ko‘nadi, o‘zim bilan birga olib kelaman, bir necha kun biznikida turadi. Bu vaqt ichida aravalarimizni pullab olamiz.

— To‘g‘ri aytasan, — debdi ikkinchi dangasa. — Abjir yasagan aravalarni ham o‘zimiz sotamiz.

Bu maslahat dangasalarga ma‘qul tushibdi. Shundan keyin ularning biri Abjirnikiga boribdi.

— Abjir uka, biz senga achinyapmiz. O‘ylab qara, bir non bilan qorning to‘yadi-yu, sen bo‘lsang ertadan kechgacha tinmay ter to‘kasan. Nima sabab? Qo‘y bularni. Biznikiga yur. O‘zing bilasan, to‘qqiz aravasozmiz, kuniga sakson bir arava yasaymiz, aravalarimizning narxi joyida. Yur, biz bilan birga bo‘l!

Dangasa u deb, bu deb, xullas ko‘ndiribdi.

— Borsam-boraqolay, — debdi Abjir.

O‘zi yasagan to‘qqiz aravaga mol-mulkini ortib, dangasalarning uyiga ko‘chib boribdi. Dangasalar, unga alohida xona ajratib berishibdi. Shundan keyin Abjirning uyiga har kun mehmonlar kela boshlabdi, akalar ziyofatning quyug‘ini yer ekanlar.



Проворный у нас проработает несколько дней. За это время мы распродадим свои арбы.

— Правильно говоришь! — закричали лодыри и послали первого лодыря к Проворному.

— Брат Проворный! Мы тебя очень жалеем. Подумай сам, ты с утра до ночи трудишься, проливаешь пот — зачем тебе так мучить себя? Брось всё, иди к нам.

— Ну, ладно, — сказал Проворный, — иди так иди!

Начали работать все вместе. Лодыри спрятались от жары в тень. Только Проворный, повязав лоб платком, продолжал пилить, строгать, гвозди заколачивать.

Вечером Проворный пересчитал арбы. Сам он смастерил девять арб, а лодыри сделали одну — всего десять. Удивился Проворный, но промолчал.

На базаре никто не купил арбу, сделанную лодырями. А арбы, которые смастерил Проворный, раскупили нарасхват.

Стал Проворный учить лодырей. Ничего из этого не получилось. Бросил Проворный лодырей и ушёл к себе.

Думали, думали лодыри, что делать дальше, и ничего не могли придумать.



Oradan ancha vaqt o'tgach, Abjirning puli tugab qolibdi.

U ko'p o'ylab turmay uyida arava yasamoqchi bo'libdi. Ammo Abjirni kuzatib yurgan dangasalardan biri uni o'zlari bilan birga ishlashga ko'ndiribdi.

Birga ishlay boshlabdilar.

Yozning issiq kunlari ekan. Dangasalar issiqni vaj qilib, o'zlarini salqinga uribdilar. Ish boshida Abjirning yolg'iz o'zi qolibdi, ammo u tinch turmay, peshonasini tang'ib olib, ishni davom ettiraveribdi.

Kechqurun aravalarini sanab chiqibdi. Bir o'zi yasagan arava to'qqizta, dangasalar yasagan arava bitta, hammasi o'nta emish. U ajablanibdi, lekin indamabdi. Bozorda dangasalarining aravasini hech kim olmabdi. Abjir yasagan aravalar esa qo'l-qo'lga tegmay, birpasda tamom bo'libdi.

Abjir avval achchig'lanibdi, keyin dangasalarni yaxshiroq ishlashga o'rgata boshlabdi, ammo dangasalarining bo'yinlari ishga yor bermas ekan.

Abjir ishyoqmaslarni tashlab ketibdi. Dangasalar: «Endi nima qilsak ekan?» deb ko'p o'ylashibdi.

Biri yana hiyla topib, nari-beri ishlayotgan sheriklariga qarab:

— Topdim! — deb baqiribdi.

Dangasalarining biri mix qoqqancha, beshtasi arava o'qini g'ildirakka solmoqchi bo'lgancha va bittasi to'qmoqni ko'targancha qotib qolibdi.



— Нашёл! — крикнул наконец первый лодырь.

Один лодырь гвоздь забивал, шестеро надевали колесо на ось, один топор держал — все так и застыли на месте.

Первый лодырь продолжал:

— Сегодня ночью сожжём все арбы Проворного. А завтра на базаре не будет арб, кроме наших, и цены на них поднимутся — продадим свой товар за хорошие деньги. Что скажете?

— Хорошо придумал! — сказали остальные лодыри.


Как только Проворный ненадолго уехал из города, лодыри подожгли все его готовые арбы.


Вернулся Проворный домой и увидел, что арбы его сгорели. Сразу понял, кто это сделал.

— Эх, что было, то прошло! — сказал он и как ни в чём не бывало принялся за работу.

Повезли лодыри продавать на базар свои арбы и заехали к Проворному — его бедой насладиться. Видят, он работает как ни в чём не бывало. Да ещё поёт.

— Салом, Проворный! Как поживаешь? Всё ли благополучно?





— Arava kuli zarur edi, deysanmi?

— Ha, asti so'rama, bozorda arava kulini tillaga almashyaptilar. Mana ko'rib turibsan, — Abjir tagidagi xurjunni ko'rsatibdi, — kulni tillaga alishtirib kelyapman.

Dangasalar hayron qolishibdi. Abjir boshqa hech so'z aytmay jo'nab qolibdi.

Dangasalarning boshlari qotib, avval ko'p tortishibdilar, keyin o'z aravalariga o't qo'yibdilar. Aravalar yonib kul bo'libdi.

Keyin dangasalar aravalarining kulini xurjunga solib, bozorga jo'nashibdi.

Bozorda odam ko'p ekan. To'qqiz dangasa eshaklariga ikki ko'zi to'la kul xurjunlarini ortib, bozorga kirib kelishibdi.

— Arava kuli oladigan bormi?

— Yaxshi aravalarining yaxshi kuli!

— Bir xurjun kulning bahosi bir xurjun tilla. Kep qoling, op qoling, ho-hoy...

Hamma hayron bo'libdi. To'qqiz dangasa baravar baqiraveribdi.

Avval odamlar ichaklari uzilib kulishibdi, keyin kaltak olib dangasalarni bozordan haydab chiqarishibdi.

Bu dangasalarga juda alam qilibdi. Shunday jahllari chiqibdiki, Abjirdan qasos olmoqchi bo'libdilar.



Люди смеялись до слёз, а потом схватили палки да и прогнали всех лодырей с базара.

Очень разозлились лодыри и решили Проворному отомстить.

Забрались они в полночь во двор к Проворному, хотели его избить. В темноте наткнулись на ишака, а тот давай лягаться. Лодыри вовсе обозлились и принялись ишака бить. Избили так, что он издох.

Наутро Проворный видит — ишак его лежит мёртвый. Огорчился Проворный, потом положил ишака на арбу и повёз в поле.

Подъехал к большому току, снял ишака и поставил возле скирды необмолоченной пшеницы.

Хозяин тока — ростовщик Салимбай — сидел неподалеку и завтракал.

Увидел он ишака возле пшеницы и давай кричать:

— Пошт! Пошт! Пошт! Пошёл!

А ишак стоит себе и не двигается.

Подбежал Салимбай, палкой со всего маху стукнул ишака по спине. Мёртвый ишак, конечно, упал на землю.

— Вай! — закричал Проворный. — Ты, бай, убил моего ишака!